



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, mart-aprel.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjajevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

XODIMLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTI, KORPORATIV MADANIYAT VA MEHNAT UNUMDORLIGI O'RTASIDAGI UZVIY BOG'LIQLIKNI CHUQUR TAHLIL QILISH.....	8
Shoabdurashidova Mahina Jaxongir qizi, Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ESG TAMOYILLARI INTEGRATSIYASI ORQALI KORXONALAR BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH.....	15
Jolg'ashova Nozima Mansurovna, T.D. Mamatkulov	
АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ РЕГИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	21
Давлетова Адилля Азатбаевна, Сапаев Дилшод Хушнудович	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI RIVOJLANISHI IQTISODIY O'SISHNING OMILI.....	27
Jumaniyazov Rashid Azamatovich, Ismailov Baxit Abdireymovich	
“LOKOMOTIV” MEHMONXONASI ZAMONAVIY SHAROITLARDA XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	31
Masharipov O'rolbek Ozod o'g'li, Khodjaeva Nodiraxon Abdurashidovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	36
Boybosinova Shaxlo Meles qizi, Ostonov Muhridin Bahriddin o'g'li	
AUDITORLIK TEKSHIRUVI JARAYONIDA AUDITORLIK DALILLARINI TO'PLASH VA BAHOLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	44
Qodirjonov Dilshodjon Qosimjon o'g'li, Xolmirzayev Ulug'bek	
BUXGALTERIYA HISOBINI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MOLIYAVIY NAZORAT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	49
Igamberdieva Kunduz Ergashevna, O'razova Marjona Valiboy qizi	
ВЛИЯНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ.....	55
Камилова Наргиза Абдукажоревна, Давронов Дониёрбек Заррухович	
ANALYSIS OF OUR COUNTRY'S POSSIBILITIES FOR ACCESS TO THE SEA THROUGH THE KABUL CORRIDOR.....	61
Khuzhamov Babur, Khudoyberdiev Diyorbek, Jumaboev Bekzod	
O'ZBEKISTONDA ESK.UZ TIZIMINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA ISTIQBOLLARI	69
M.J.Nurmetova, Baxtyorov Ahadbek Doniyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA KRIPTOVALYUTALARNING JORIY FOYDALANISHINI TAHLIL QILISH.....	77
Qobilova N. Q., Normurodov X. E.	
MOLIYAVIY RISKLAR VA ULARNI XALQARO MIQYOSDA BOSHQARISH USULLARI.....	83
Toirov Bobur G'ofir o'g'li, F.U.Umarov	
SUN'IY INTELEKTNING INSON ONGIGA VA DAVLAT KORXONALARINI RAQAMLASHTIRISHGA TA'SIRI.....	90
Uskanboyev Temurbek Ismoil o'g'li, F.U.Umarov	
IQTISODIYOT TARMOQLARI YUKLARINI TASHISHNI TASHKIL ETISH.....	97
Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich	



TARIXIY OBIDALAR ASOSIDA MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH.....	102
Boltaboyeva Maqsuda Matjonboy qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INTERNET VA IJTIMOY TARMOQLARNING ROLI.....	105
Abdumutalova Shahzoda Yodgorjon qizi, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich	
ФИНАНСИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ЗА СЧЕТ ИНВЕСТИЦИОННЫХ И ПАЕВЫХ ФОНДОВ	109
Дилшод Насиров, Сухроб Хайитов, Самира Каримова	
КОМПЕТЕНТНОСТЬ КАК УСЛОВИЕ ОСМЫСЛЕННОГО РАЗГОВОРА ОБ ЭКОНОМИКЕ	115
Зайналов Ж. Р., Абдумажидов Ш. Ш.	
ГОСУДАРСТВЕННЫЕ РАСХОДЫ КАК ПОКАЗАТЕЛЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТРАНЫ.....	119
Юсупов Азаматжон Икромович, Ишонкулова Феруза Асатовна	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОВЫШЕНИЯ ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ В ПРЕДПРИЯТИЯХ СФЕРЫ УСЛУГ	124
Насиров Дилшод Фархадович, Казакбаева Динара, Максетбаева Гулпаршин	
ВЕЛИКОЕ УСКОРЕНИЕ: КОНВЕРГЕНЦИЯ ИИ И БЛОКЧЕЙНА КАК НОВАЯ ИНВЕСТИЦИОННАЯ ПАРАДИГМА 2026 ГОДА.....	129
Насиров Дилшод Фархадович, Синько Юлианна Викторовна, Шамшетова Жамила Муса кызы	
KORXONANING IQTISODIY SALONIYATINI BAHOLASH KO'RSATKICHLARI	134
Turg'unpulatov Ziyovuddin Alijon o'g'li, Odilov Xamidillo Mahmudjon o'g'li	
РОЛЬ БЛОКЧЕЙН-ТЕХНОЛОГИЙ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРОЗРАЧНОСТИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ	139
Дилмуродов Журабек Улугбек угли, Белалова Гузаль Анваровна	
OPERATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH.....	144
Nasrullayev Omonulloxon Nodirjon o'g'li, X.M. Odilov	
HAVO IFLOSLANISHI VA YASHIL TABIAT YOMONLASHUVI NATIJASIDA SOG'LIQNI SAQLASH XARAJATLARINING OSHISHI: IQTISODIY TAHLILI	150
Sotvoldiyeva Rayxona Abdurasul qizi, Odilov Xamidillo	
TIJORAT BANKLARIDA PUL MABLAG'LARI HARAKATI VA LIKVIDLIK TAHLILI	155
Foziljonova Niholaxon Fayoz qizi, X.M.Odilov	
NOMINAL VA REAL YAIM VA UNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASIDAGI AHAMIYATI	162
Ziyodullayev Dilshod Sherzodovich, Jo'rayev Toshbolta To'xtayevich	
YASHIL IQTISODIYOT: ZAMONAVIY RIVOJLANISH PARADIGMASI SIFATIDA TAHLILI.....	167
Yo'ldashaliyev Muxammadaziz Xabibulla o'g'li, Yoqubova Zilola Tura qizi	
РОЛЬ БРЕНДИНГА В ИННОВАЦИОННОЙ СИСТЕМЕ МАРКЕТИНГА.....	172
Насиров Дилшод Фархадович, Файзуллаев Аслиддин Сафар угли, Толибжонов Умеджон Одилович	
AMIR TEMURNING IJTIMOY, IQTISODIY VA SIYOSIY QARASHLARI	176
Lola Xalikova Nazarovna, Mutabar Absamatova Jamshid qizi	
ИНТЕГРАЦИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: ВОЗМОЖНОСТИ И УГРОЗЫ В КОНТЕКСТЕ НОВОЙ РЕГИОНАЛЬНОЙ АРХИТЕКТУРЫ.....	181
Убайдуллаев Сирожиддин	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ROLI	186
Fazilat Esirgarpovna Jomonqulova, Nizomov Murod, Madinabonu Temirova Otabek qizi	
ПОТРЕБИТЕЛЬСКАЯ КОРЗИНА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКИ	191
Ишонкулова Феруза Асатовна, Ибрагимова Ширин	



IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI, AHAMIYATI VA ULARNING ZAMONAVIY GLOBAL IQTISODIYOTDAGI TRANSFORMATSIYASI	195
Abdukaxxorova Durdona Ilxomovna, Muhabbat Hakimova Fayziyevna	
YANGI O'ZBEKISTONNING XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI BILAN HAMKORLIGI VA UNING RIVOJLANISHI.....	201
Ataniyazov Jasurbek Xamidovich, Abdullayev Izzatbek Akramxon o'g'li	
УПРАВЛЕНИЕ КАЧЕСТВОМ И КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬЮ В РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	206
Латипов Ашур Али Рустам угли, Ахтамов Огабек Улугбек угли, Фахритдинов Амриддин Фазлитдинович, Саидмуродов Жонибек Жахонгирович	
ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	212
Латипов Ашур Али Рустам угли, Нарбаев Жандарбек Агабекович, Собирова Мадинабону Санджаровна, Эгамкулов Шохжапон Куниш угли	
YASHIL LOGISTIKA LOYIHALARIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BAHOLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	218
Sobirjonova Nodira Rustamjon qizi, Adashaliyev Miraziz Mirzohidjon o'g'li	
INVESTITSIYALARNING O'ZBEKISTON IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BARQAROR O'SISHGA TA'SIRI.....	225
Yarboeva Farida Ulug'bekovna, Yoqubova Zilola Tura qizi	
ДИНАМИКА ВНЕШНЕТОРГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ВХОЖДЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА В МИРОВОЕ СООБЩЕСТВО	230
Камилова Наргиза Абдукажоровна, Иванян Михаил Михайлович	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIG'INING FISKAL AHAMIYATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	234
Otabek Jalolov, Abdurashidov Abdusamad	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIG'INING FISKAL AHAMIYATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Otabek Jalolov

Fan va texnologiyalar universiteti

4-bosqich talabasi

E-mail: otabekvohidovich@icloud.com

Ilmiy rahbar:

Abdurashidov Abdusamad

Fan va texnologiyalar universiteti

“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0009-0005-7073-3140

E-mail: aabdurashidovvv@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada aksiz solig'ining iqtisodiy mohiyati hamda davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi o'rnini tahlil qilingan. Tadqiqotda aksiz solig'i stavkalari, ularning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri va turli sohalarda qo'llanish xususiyatlari o'rganilgan. O'zbekiston misolida aksiz solig'ining iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda optimal stavkalar tizimini aniqlash yo'nalishlari asoslab berilgan. Shuningdek, aksiz stavkalarining iqtisodiy faoliyat va aholi daromadlariga ta'siri baholanib, xalqaro tajriba asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: aksiz solig'i, aksiz tushumlari, davlat byudjeti, fiskal siyosat, iqtisodiy barqarorlik, soliq stavkalari, soliq bazasi, byudjet daromadlari, iqtisodiy o'sish sur'atlari.

Abstract: This article analyzes the economic essence of excise tax and its role in the formation of state budget revenues. The study examines excise tax rates, their impact on economic stability, and their application across various sectors. Based on the example of Uzbekistan, the paper substantiates directions for improving the economic efficiency of excise taxation and determining an optimal rate system. In addition, the impact of excise rates on economic activity and household income is assessed, and practical recommendations are developed based on international experience.

Key words: excise tax, excise revenues, state budget, fiscal policy, economic stability, tax rates, tax base, budget revenues, economic growth rates.

Аннотация: В данной статье проанализированы экономическая сущность акцизного налога и его роль в формировании доходов государственного бюджета. В исследовании рассмотрены ставки акцизного налога, их влияние на экономическую стабильность и особенности применения в различных отраслях. На примере Узбекистана обоснованы направления повышения экономической эффективности акцизного налога и определения оптимальной системы ставок. Также оценено влияние акцизных ставок на экономическую деятельность и доходы населения, а на основе международного опыта разработаны практические рекомендации.

Ключевые слова: акцизный налог, акцизные поступления, государственный бюджет, фискальная политика, экономическая стабильность, налоговые ставки, налоговая база, доходы бюджета, темпы экономического роста.

KIRISH

Aksiz (fransuzcha: accise — qirqib olmoq) — keng iste'mol tovarlari, muhim xom ashyolar hamda ayrim xizmatlarga davlat tomonidan solinadigan qo'shimcha soliq turidir. Aksiz solig'i, odatda, muayyan tovarlar (qand, gugurt, tuz, tamaki mahsulotlari, spirtli ichimliklar, shuningdek avtomobillar, muzlatkichlar, mo'yna va billur buyumlar va boshqalar) narxiga yoki ko'rsatilgan xizmatlar (kommunal, transport va boshqalar) haqiga ustama sifatida qo'shiladi. Natijada ushbu soliqning asosiy yukini bevosita iste'molchilar ko'taradi.



Aksiz solig'i narx tarkibida qat'iy belgilangan summa yoki narxning ma'lum foizi shaklida namoyon bo'ladi. U davlat byudjeti daromadlarining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Tarixiy jihatdan aksiz solig'i qadimgi Rim davriga borib taqaladi va bugungi kunda jahon mamlakatlarida keng qo'llanilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida aksiz solig'i 1992-yilda qo'shilgan qiymat solig'i bilan birgalikda oborot solig'i hamda sotuvga solinadigan soliq o'rniga joriy etilgan. Aksiz solig'ining qo'shilgan qiymat solig'idan asosiy farqi shundaki, u faqat ayrim turdagi tovarlarga nisbatan qo'llaniladi va bajarilgan ishlar hamda ko'rsatilgan xizmatlarga tatbiq etilmaydi. Shu sababli aksiz solig'i individual xarakterga ega bo'lib, faqat aksizga tortiladigan mahsulotlar doirasida amal qiladi.

O'zbekistonda 1996-10-01 dan boshlab respublika hududida ishlab chiqarilgan hamda import qilinadigan tamaki mahsulotlari va spirtli ichimliklarni realizatsiya qilishda maxsus aksiz markalari joriy etilgan. Hozirgi kunda aksiz solig'i davlat byudjeti daromadlari tarkibida muhim o'rin egallaydi hamda fiskal barqarorlikni ta'minlashda samarali vositalardan biri sifatida xizmat qilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligi, xususan, Soliq kodeksi, Prezident farmonlari va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasi qarorlari o'rganildi. Shuningdek, aksiz solig'i bo'yicha ilmiy maqolalar va monografiyalar tahlil qilindi.

Aksiz solig'ining afzalliklari ingliz iqtisodchisi U. Peti tomonidan "Soliqlar va yig'imlar haqida traktat" asarida (1662-yil) asoslab berilgan. U aksizlar foydasiga quyidagi to'rtta asosiy dalilni keltiradi:

1. tabiiylik va adolatlilik — har bir shaxs o'zi iste'mol qilgan mahsulotiga mos ravishda to'lov amalga oshiradi;
2. tejamkorlikni rag'batlantiradi;
3. bir xil mahsulot uchun ikki marotaba soliq to'lanishining oldini oladi;
4. mamlakat boyligini baholash imkonini yaratadi.

M. V. Kashirining fikricha, aksiz solig'i tizimi murakkab tuzilishga ega bo'lib, ayniqsa, alkogolli mahsulotlar muomalasini nazorat qilish masalasi dolzarb hisoblanadi. Bu holat ayrim hollarda noqonuniy ishlab chiqarish hajmining ortishi bilan bog'liq bo'lib, natijada moliyaviy resurslarning bir qismi rasmiy iqtisodiyotdan tashqarida aylanishi kuzatiladi.

A. V. Tsenerjinskayaning ta'kidlashicha, aksiz solig'ini qo'llash jarayonida davlat nazoratini yanada kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, tamaki va alkogolli mahsulotlar kabi ayrim tovarlarga nisbatan aksiz solig'i qo'llanilganda, davlat tomonidan qat'iy tartibga solish siyosati olib boriladi hamda aksiz stavkalarini bosqichma-bosqich oshirish samarali fiskal choralar sifatida e'tirof etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda aksiz solig'ining fiskal ahamiyatini baholash hamda uni takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus iqtisodiy usullar uyg'un holda foydalanildi.

Xususan, tahlil va sintez usullari yordamida aksiz solig'ining iqtisodiy mohiyati, uning davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi o'rni hamda soliq stavkalarining dinamikasi o'rganildi. Statistik tahlil usuli asosida 2017–2024-yillar davomida aksiz tushumlarining o'sish sur'atlari va ularning iqtisodiy jarayonlarga ta'siri baholandi.

Shuningdek, taqqoslash usuli orqali O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan aksiz solig'i tizimi jahon amaliyoti bilan solishtirildi hamda mavjud farqlar va ustunliklar aniqlandi. Normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish asosida Soliq kodeksi, Prezident farmonlari va qarorlari hamda boshqa me'yoriy hujjatlar o'rganildi.

Tadqiqot davomida iqtisodiy-matematik yondashuv elementlaridan foydalangan holda aksiz solig'i stavkalari va soliq bazasining o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi. Grafik va jadval usullaridan foydalanish orqali aksiz tushumlarining dinamikasi va o'sish tendensiyalari vizual tarzda ifodalandi.

Mazkur metodologik yondashuv aksiz solig'ining fiskal samaradorligini kompleks baholash, uning iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini aniqlash hamda uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish imkonini berdi

TAHLIL VA NATIJALAR

Soliq to'lovchilar

Aksiz solig'i to'lovchilari sifatida quyidagi shaxslar e'tirof etiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'i solinadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchilar;
2. tabiiy gazni iste'molchilarga realizatsiya qiluvchi subyektlar;



3. benzin va dizel yoqilg'isini yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qiluvchi subyektlar, shu jumladan avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali, shuningdek gazni gaz to'ldirish stansiyalari va punktlari orqali realizatsiya qiluvchilar. Mazkur holatda yakuniy iste'molchilar deganda o'z ehtiyojlari uchun benzin, dizel yoqilg'isi hamda gaz sotib oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi;

4. oddiy shirkat ishtirokchisi bo'lib, shartnoma doirasida aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq faoliyatni yuritish vazifasi yuklatilgan ishonchli shaxs;

5. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududi orqali aksiz to'lanadigan tovarlarni olib o'tuvchi shaxslar. Bojxona to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq ular soliq to'lovchilar sifatida e'tirof etiladi;

6. O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi hamda aksiz solig'i solinadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi yoki import qiluvchi chet el yuridik shaxslari.

Soliq bazasi

Soliq bazasi aksiz to'lanadigan tovarlarning har bir turi bo'yicha amaldagi soliq stavkalariga muvofiq alohida aniqlanadi.

Agar soliq stavkalari qat'iy (mutlaq) summada belgilangan bo'lsa, soliq bazasi tovarlarning naturada ifodalangan hajmiga asoslanadi.

Agar stavkalar foizlarda (advalor) belgilangan bo'lsa, soliq bazasi realizatsiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning qiymati asosida, biroq ularning haqiqiy tannarxidan past bo'lmagan miqdorda aniqlanadi.

Jismoniy shaxslar mehnatiga haq to'lash, dividendlar hisobidan bepul berish yoki boshqa tovarlar (xizmatlar) bilan ayirboshlash holatlarida soliq bazasi Soliq kodeksining 285-moddasi ikkinchi va uchinchi qismlariga muvofiq belgilanadi.

Qaytarish sharti bilan qayta ishlangan xom ashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq bazasi ishlab chiqarish ishlarining qiymatini hamda qayta ishlangan xom ashyo va materiallar qiymatini o'z ichiga oladi.

Agar aralash (qat'iy va advalor) stavkalar qo'llanilsa, soliq bazasi tovarlarning naturadagi hajmi va realizatsiya qiymatiga asoslanadi, agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa.

Import qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlar uchun:

- advalor stavkalarda — bojxona qiymati asosida;
- qat'iy stavkalarda — naturadagi hajm asosida;
- aralash stavkalarda — naturadagi hajm va (yoki) bojxona qiymati asosida aniqlanadi.

Benzin, dizel yoqilg'isi va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishda soliq bazasi realizatsiya qilingan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalanilgan yoqilg'ining naturadagi hajmiga teng deb olinadi.

Soliq stavkalari

Tamaki mahsulotlariga nisbatan aksiz solig'i stavkalari amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq belgilanadi (1-jadval).

1-jadval. Tamaki mahsulotlari bo'yicha aksiz solig'i stavkalari

T/r	Tamaki mahsulotlari turlari	Soliq stavkalari	
		import qilinganda	ishlab chiqariladigan
1.	Filtrli, filtrsiz sigaretalar, papirosalar, sigarillalar (sigaritlar), bidi, kretek	2025-yil 1-yanvardan: 330 000 so'm/1 000 dona	2025-yil 1-yanvardan: 300 000 so'm/1 000 dona
		2025-yil 1-iyuldan: 340 000 so'm/1 000 dona	
2.	Sigara	20 000 so'm/1 dona	
3.	Chilim uchun tamaki	600 000 so'm/kg*	
4.	Chekiladigan, o'rama tamaki	600 000 so'm/kg	
5.	Chaynaladigan, hidlanadigan va shimiladigan tamaki	382 000 so'm/kg	
6.	Qizdiriladigan tamaki tayoqchasi, qizdiriladigan tamakili kapsula va tarkibida tamaki mavjud bo'lgan o'xshash tamoyil bilan foydalaniladigan boshqa mahsulotlar	450 000 so'm/kg	
7.	Nikotinli tamakisiz snyus	154 000 so'm/kg	
8.	Tarkibida nikotin mavjud bo'lgan suyuqlik (kartrijlarda, rezervuarlarda va elektron sigaretlarda foydalanish uchun boshqa konteynerlarda)**	2 000 so'm/ml	



Alkogol mahsulotlariga nisbatan aksiz solig'i stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi (2-jadval):

2-jadval. Alkogol mahsulotlari bo'yicha aksiz solig'i stavkalari (1 litr uchun)

T/r	Alkogol mahsulotlari turlari	Soliq stavkalari (1 litr uchun)	
		import qilinganda	ishlab chiqariladigan
1.	Oziq-ovqat xom ashyosidan rektifikatsiyalangan etil spirti, shuningdek texnik etil spirti (rektifikatsiyalangan va efiroaldegidli fraksiyadan) hamda don distillyati (bundan texnik spirt olish uchun sarflangan etil spirtining boshlang'ich fraksiyasi mustasno)	15 000 so'm	
2.	Aroq, konyak va boshqa alkogol mahsulotlari (aksiz to'lanadigan tovar tarkibidagi suvsiz etil spirtining 1 litri uchun, bundan 3 va 4-bandlar mustasno)	76 000 so'm	44 000 so'm
3.	Vino: tabiiy ravishda achitilgan tabiiy vinolar (etil spirti qo'shilmagan holda)	14 000 so'm	5 000 so'm
	boshqa vinolar, shu jumladan vermut	20 000 so'm	6 000 so'm
4.	Pivo	6 000 so'm	2 000 so'm

Neft mahsulotlari va boshqa aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi (3-jadval):

3-jadval. Ayrim tovarlar bo'yicha aksiz solig'i stavkalari (2025-yil 1-yanvardan va 2025-yil 1-apreldan holatiga ko'ra)

T/r	Tovarlar nomi	Soliq stavkalari	
		2025-yil 1-yanvardan	2025-yil 1-apreldan
1.	Neft mahsulotlari:		
	AI-80 va undan yuqori benzin	340 000 so'm/tonna	375 000 so'm/tonna
	AI-91 va undan yuqori benzin	303 000 so'm/tonna	335 000 so'm/tonna
	aviakerosin (sintetikdan tashqari)	271 000 so'm/tonna	300 000 so'm/tonna
	dizel yoqilg'isi (sintetikdan tashqari)	326 000 so'm/tonna	360 000 so'm/tonna
	EKO dizel yoqilg'isi (sintetikdan tashqari)	293 000 so'm/tonna	325 000 so'm/tonna
	dizel yoki karbyurator (injektor) dvigatellari uchun motor moyi	461 000 so'm/tonna	510 000 so'm/tonna
2.	Polietilen granulalar	10 %	
3.	Tabiiy gaz	12 %	
4.	Yakuniy iste'molchiga realizatsiya qilinadigan:		
	AI-80 va undan yuqori benzin	1 litr uchun 476 so'm/1 tonna uchun 633 000 so'm	1 litr uchun 525 so'm/1 tonna uchun 700 000 so'm
	AI-91 va undan yuqori benzin	1 litr uchun 425 so'm/1 tonna uchun 565 000 so'm	1 litr uchun 470 so'm/1 tonna uchun 621 000 so'm
	dizel yoqilg'isi	1 litr uchun 476 so'm/1 tonna uchun 578 000 so'm	1 litr uchun 525 so'm/1 tonna uchun 635 000 so'm
	suyultirilgan gaz	1 litr uchun 476 so'm/1 tonna uchun 904 000 so'm	1 litr uchun 525 so'm/1 tonna uchun 1 000 000 so'm
	siqilgan gaz	1 m ³ uchun 678 so'm	1 m ³ uchun 750 so'm
5.	Xushbo'ylashtiruvchi yoki rang beruvchi qo'shimchalarsiz oq shakar	20%	
6.	Tarkibida shakar yoki boshqa shirinlashtiruvchi yoki xushbo'ylashtiruvchi moddalar mavjud bo'lgan va iste'mol qadog'iga qadoqlangan ichimliklar* (bundan energetik va tetiklashtiruvchi ichimliklar mustasno):		
	gazlangan	1 litr uchun 500 so'm	
	gazlanmagan	-	1 litr uchun 500 so'm
	Energetik va tetiklashtiruvchi ichimliklar	1 litr uchun 2 000 so'm	



Aksiz solig'i davlat daromadlari manbai sifatida davlat byudjetining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Hozirgi vaqtda aksiz solig'i barcha mamlakatlarda moliyaviy resurslarni shakllantirishda, shuningdek, bozordagi nomutanosibliklarni bartaraf etishda samarali vosita sifatida qo'llanilmoqda. Aksiz solig'ining davlat byudjetiga tez tushishi uning xarajatlarni qisqa muddatda moliyalashtirish imkonini yaratadi. Shu bois aksiz solig'i fiskal barqarorlikni ta'minlashda muhim instrument hisoblanadi.

Aksizlar moliya va soliq tizimining tartibga soluvchi samarali elementi sifatida byudjet daromadlari va davlat boshqaruvi mexanizmining ajralmas qismi hisoblanadi. Uning moliyaviy funksiyasi mamlakat byudjetini shakllantirish uchun barqaror va yetarli daromad oqimini ta'minlashdan iborat. Shuningdek, aksiz tushumlarining ortishi davlat byudjeti daromadlarining oshishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan aksiz solig'i davlat uchun barqaror daromad manbai sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Aksiz solig'ini hisoblash soliq bazasi va belgilangan stavkalardan kelib chiqib amalga oshiriladi. Import qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha, agar ularga nisbatan aralash (advalor va qat'iy) stavkalar belgilangan bo'lsa, soliq hisoblash soliq bazasi hamda advalor stavkaga muvofiq amalga oshiriladi. Agar soliq stavkalari mutlaq (qat'iy) summada belgilangan bo'lsa, soliq bazasi tovarlarning naturada ifodalangan hajmiga asoslanadi. Foiz (advalor) stavkalar qo'llanilganda esa soliq bazasi realizatsiya qilingan tovarlarning qiymati asosida, biroq ularning haqiqiy tannarxidan past bo'lmagan miqdorda aniqlanadi.

Jismoniy shaxslar mehnatiga haq to'lash, dividendlar hisobidan bepul berish yoki boshqa tovarlar (xizmatlar) bilan ayirboshlash holatlarida soliq bazasi Soliq kodeksining 285-moddasiga muvofiq aniqlanadi. Qaytarish sharti bilan qayta ishlangan xom ashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq bazasi ishlab chiqarish ishlari qiymatini hamda xom ashyo va materiallar qiymatini o'z ichiga oladi. Aralash stavkalar qo'llanilganda soliq bazasi tovarlarning naturadagi hajmi va realizatsiya qiymatiga asoslanadi.

Chetdan olib kiriladigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha advalor stavkalar qo'llanilganda soliq bazasi bojxona qiymati asosida aniqlanadi. Agar aralash stavkalar qo'llanilsa, soliq bazasi naturadagi hajm va (yoki) bojxona qiymati asosida belgilanadi.

2019–2025-yillar davomida alkogol mahsulotlari uchun aksiz solig'i stavkalari bosqichma-bosqich o'zgarib borgan. Jumladan, 2021-yilda aksiz stavkalari uch marotaba — 2021-01-01, 2021-02-01 va 2021-10-01 sanalarida qayta ko'rib chiqilgan. Etil spirti bo'yicha stavkalar 2019–2021-01-01 oralig'ida 10 800 so'mni tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda bosqichma-bosqich qayta belgilangan va 2025-04-01 dan 15 000 so'm miqdorida tasdiqlangan. Bu esa aksiz siyosatining takomillashib borayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, 2019–2025-yillar davomida neft mahsulotlari bo'yicha aksiz stavkalari ham izchil o'zgarib borgan. Masalan, AI-80 benzini uchun stavkalar 2021-01-01 dan 200 000 so'm/tonna, 2021-02-01 dan 240 000 so'm/tonna, 2022-07-01 dan 275 000 so'm/tonna, 2023-02-01 dan 303 000 so'm/tonna va 2025-04-01 dan 375 000 so'm/tonna etib belgilangan.

Polietilen granularlar bo'yicha stavkalar 2019–2020-yillarda 30 %ni tashkil etgan bo'lsa, keyinchalik pasaytirilib, 2022-yildan boshlab 10 % etib belgilangan. Tabiiy gaz bo'yicha aksiz solig'i stavkasi esa 2025-yilda 12 % darajasida tasdiqlangan (1-rasm).

1-rasm. Aksiz solig'i tushumlari va o'sish sur'atlari bo'yicha
2017–2024 yil ma'lumotlari.





O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining muhim manbalaridan biri bo'lgan aksiz solig'i 2017–2024-yillar mobaynida salmoqli o'sish sur'atlarini namoyon etgan. Ushbu davrda tushumlar hajmi 9,2 trln so'mdan (2017-yil) 17,8 trln so'mga (2024-yil) yetib, mazkur soliq turi byudjet uchun barqaror daromad manbai sifatida xizmat qilayotganini tasdiqlaydi.

Tushumlar dinamikasi:

– 2017-yilda tushum 9,2 trln so'mni tashkil etib, boshlang'ich nuqta sifatida qaraladi.
– 2018-yilda tushum 11,2 trln so'mga oshgan (o'sish: 121,7 %). Bu holat soliq stavkalari hamda aksiz ostidagi tovarlar ro'yxatining qayta ko'rib chiqilishi bilan izohlanadi.

– 2019-yilda tushum 10,3 trln so'mni tashkil etgan (o'sish: 92 %). Bu ko'rsatkich ayrim fiskal choralar va stavkalar optimallashtirilishi bilan bog'liq holda izohlanadi.

2020–2024-yillarda tushumlar izchil o'sish tendensiyasini namoyon etgan:

– 2020-yil: 11,7 trln so'm (113,6 %)

– 2021-yil: 13,1 trln so'm (112 %)

– 2022-yil: 13,5 trln so'm (103,1 %)

– 2023-yil: 15,8 trln so'm (117 %)

– 2024-yil: 17,8 trln so'm (112,7 %)

Mazkur dinamikadan ko'rinib turibdiki, 2019–2020-yillar davrida iqtisodiy omillar ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, keyingi yillarda olib borilgan barqaror fiskal siyosat va soliq ma'murchiligini takomillashtirish natijasida aksiz solig'i tushumlari tezkor tiklanib, barqaror o'sish yo'liga o'tgan.

O'sish sur'atlari (yillik, %) ham muhim iqtisodiy indikator hisoblanadi.

– 2018-yildagi 121,7 % o'sish yuqori dinamikani aks ettirib, soliq stavkalarining qayta ko'rib chiqilishi, yangi tovar guruhlarning aksizga tortilishi hamda iste'mol hajmining oshishi bilan bog'liq.

– 2019-yildagi 92 % ko'rsatkich fiskal siyosatning muvozanatlashganligini va ayrim stavkalar optimallashtirilganini ko'rsatadi.

– 2020–2024-yillar davomida 103–117 % oralig'idagi barqaror o'sish aksiz solig'i tushumlari bo'yicha izchil va muvozanatli siyosat yuritilayotganini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari aksiz solig'i davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Uning ilmiy asoslangan va to'g'ri belgilangan stavkalari iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston hamda jahon mamlakatlari tajribasi asosida olib borilgan tahlillar aksiz solig'ining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun strategik yondashuvni kuchaytirish va stavkalarni optimallashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, aksiz solig'ini takomillashtirish jarayonida iste'mol darajasi va aholining to'lov qobiliyatini inobatga olish muhim hisoblanadi. Aksizga tortiladigan tovarlar ro'yxatini iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib muntazam ravishda qayta ko'rib chiqish, soliq ma'murchiligini raqamlashtirish orqali tushumlar ustidan nazoratni kuchaytirish zarur. Shuningdek, noqonuniy ishlab chiqarish va yashirin aylanmalarni qisqartirishga qaratilgan mexanizmlarni takomillashtirish hamda xalqaro tajribani joriy etish orqali aksiz solig'ining umumiy samaradorligini oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Пансков В. Г. Налоги и налогообложение: учебник и практикум для прикладного бакалавриата. — Люберцы: Юрайт, 2016. — 418 с.
2. Вахобов А., Жўраев А. Солиқлар ва солиққа тортиш: дарслик. — Тошкент: "Шарқ" нашриёти, 2009. — 400 бет.
3. Тошқулов А. Х., Худойқулов С. К. Солиқ назарияси: дарслик. — Тошкент, 2021. — 290 бет.
4. Интернет манбалари.
5. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Солиқ ва бюджет сиёсатининг 2024-йилга мўлжалланган асосий йўналишлари қабул қилинганлиги муносабати билан айрим қонун ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида. — 2023-12-28, ЎРҚ-891-сон. — Lex.uz. <https://lex.uz/pdfs/6718864>
6. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. — 2022-12-30, ЎРҚ-812-сон. — Lex.uz. <https://lex.uz/ru/docs/6333246?ONDATE=01.01.2023%2000>
7. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. — 2023-12-28, ЎРҚ-891-сон. — Lex.uz. <https://lex.uz/pdfs/6718864>
8. Buxgalter.uz: <https://buxgalter.uz>
9. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi rasmiy sayti: <http://www.agriculture.uz>
10. Norma.uz: <https://www.norma.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>